



FORMING YOUTH'S LOYALTY TO THE HOMELAND - A FACTOR FOR IMPROVING SPIRITUAL AND MORAL VIRTUE IN SOCIETY

Jaloliddin Kadamovich Yusubov

Doctor of Philosophy (DSc)

*Acting Professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan*

Abror Sobirkulovich Otokulov

*Senior Lecturer of the Institute of Information and Communication Technologies and Military Communications of the University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan, Independent Researcher of the National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: moral and ethical virtue, devotion, Motherland, history, enlightenment, education, personality, patriotism, culture, ancestors, spirituality, justice, ethics, holiday, discipline, mahalla, family.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: This article discusses how our great ancestors have, since ancient times, made invaluable contributions to the treasury of human thought; the importance of moral and ethical qualities; the enrichment of young people's devotion to their Motherland; the idea that the Homeland is the most sacred and precious domain; and that loyalty is one of the noblest moral and ethical virtues inherent in humankind. The paper emphasizes the necessity of educating the younger generation in the spirit of patriotism, highlighting that the national independence ideology and its core concepts and principles are reflected in the national holidays celebrated in Uzbekistan. It also examines the crucial role of local communities (mahalla), the family, and both preschool and school education systems in fostering patriotism among youth. Moreover, the article explores ways to cultivate in individuals a deep sense of moral virtue and awareness of fulfilling one's duty of loyalty to the Motherland.

YOSHLARNING VATANGA SADOQATINI SHAKLLANTIRISH - JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATNING YUKSALISH OMILI

Jaloliddin Kadamovich Yusubov

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
professori v.b., falsafa fanlari doktori (DSc)
Toshkent, O'zbekiston*

Abror Sobirkulovich Otokulov

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining
Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti katta o'qituvchisi
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlari: ma'naviy-axloqiy fazilat, sadoqat, Vatan, tarix, ma'rifat, tarbiya, shaxs, vatanparvar, madaniyat, ajdodlar, ma'naviyat, adolat, axloq, bayram, intizom, mahalla, oila.

Annotasiya: Mazkur maqolada bizning buyuk ajdodlarimiz azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas hissa qo'shib kelganligi, ma'naviy-axloqiy sifatning ahamiyati, yoshlarning vatanga sadoqatini yanada boyitish, Vatan hamma narsadan ham qimmatli dargoh ekanligi, sadoqat insonga xos eng ezgu ma'naviy-axloqiy fazilatligi, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berish lozimligi, O'zbekistonimizda nishonlanadigan bayramlarimizda milliy istiqlool g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari aks etganligi, yoshlarimizni Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda mahalla, oila, maktabgacha va maktab ta'limining o'rni, insonlarning axloqiy fazilati, shaxs o'z Vatanga sadoqatini bajarayotganliklarini chuqur anglash hissini shakllantirish yo'llari yoritilgan.

**ФОРМИРОВАНИЕ ВЕРНОСТИ МОЛОДЕЖИ РОДИНЕ –
ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ОБЩЕСТВА**

Джалолиддин Кадамович Юсубов

*и.о. профессора Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук
Ташкент, Узбекистан*

Аброр Собиркулович Отокулов

*Старший преподаватель Института информационно-коммуникационных технологий и военных коммуникаций Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан, независимый научный сотрудник Национального университета Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: духовно-нравственная добродетель, верность, Родина, история, просвещение, воспитание, личность, патриот, культура, предки,

Аннотация: В данной статье освещается, внесённый нашими великими предками исторический вклад в сокровищницу человеческой мысли,

духовность, справедливость, мораль, праздник, дисциплина, махалля, семья.	значение духовно-нравственных качеств, повышение преданности Родине со стороны молодежи, факт того что Родина дороже всего, верность - самое благородное духовно-нравственное качество присущее человеку, необходимость уделять особое внимание воспитанию молодежи в духе преданности Родине, отражение основных понятий и принципов идеи национальной независимости в праздниках отмечаемых в Узбекистане, роль махалли, семьи, дошкольного и школьного образования в воспитании молодежи преданной Родине, нравственные качества людей, пути формирования чувства глубокого осознания того, что личность выполняет свою преданность Родине.
--	---

Kirish. Bugungi kunda bizning mamlakatimizda insonlar farovon yashaydigan ma'naviyatli, ma'rifatli, madaniyatli jamiyat barpo etishimiz uchun qat'iyat va mas'uliyat bilan yondoshishimizni hayotning o'zi talab etmoqda.

Ayni paytda bizning jamiyatimiz erishilgan yutuqlarimizga maxliyo bo'lmasdan, xotirjamlikka berilmasdan, erishayotgan muvaffaqiyatlarga tanqidiy nazar bilan qarash lozim, shunda oldimizda turgan ma'naviyat bo'yicha qilishimiz kerak bo'lgan jamiyatimizning farovon hayotini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan maqsad va bir qator dolzarb vazifalarimiz borligini ko'rishimiz mumkin.

Globalashib borayotgan davrda ma'naviy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan turmushimizdagi o'zgarishlarning rivojlanish darajasi, unga xos umuminsoniy qadriyatlarimizning amalga oshishi va bu bilan bog'liq o'ziga xos ma'naviy-axloqiy sifatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz kerak. Ushbu ma'naviy-ma'rifiy sohadagi bugungi taraqqiyoti va istiqbolini belgilaydigan faoliyatlarini yanada takomillashtirish va ularni hayotga tadbiq qilishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar va tadqiqotlar. Al-Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida inson bilimidan boshlanib, uning faoliyati (tadbirkorlik), ma'naviy hayoti bilan davom etgan bilim qadriyatlari va turlarini keng tahlil qildi. Mutafakkir fikricha, jamiyatning mustahkamligi, barqarorligi, mustahkamligi e'tiqoddan, insoniyatning tabiat qudratini to'g'ri bilishidan (ta'limotidan) boshlanadi.

Al-Forobiy aytayotgan narsa insonni, shu orqali davlatni, avlodni, millatni saqlaydigan mukammal bilimdir. Inson borlig'ining mazmun-mohiyati uning ezguligida ko'rinsa, ezgu jamiyatning kaliti sof din, komil tarbiya, to'g'ri ta'lim-tarbiya orqali avlodlarga yetkaziladi. O'z

zamonida ilm va ilmga ega bo'lmasangiz, ilm va ilmingiz bilan yurtlingizga yordam bera olmasangiz, taraqqiyot bo'lmaydi.

Ijtimoiy muhitdagi taraqqiyot inson borlig'i sohasida ma'naviy rivojlanishdan boshlanadi. Ma'naviy kamolotning asosi – to'g'ri bilish, tarix, Vatan, kelajak avlod oldidagi mas'uliyatdir[3].

Muhokama va natijalar. Inson qaerda dunyoga kelsa ana shu yer uning uchun qadrli Vatan hisoblanadi. Kindik qoni to'kilgan joy inson uchun hech narsaga alishib bo'lmaydigan, hamma narsadan ham qimmatli dargohdir. Ota-bobolarimiz, ulug' ajdodlarimiz va allomalarimiz ham yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berib, o'z yurtlariga muhabbatni ifoda etish borasida ajoyib namunalar ko'rsatishgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad al Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abulays Samarqandiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi buyuk mutafakkirlarimiz o'zlarining taxalluslarini kindik qonlari to'kilgan yurt bilan bog'laganlari, ularning nomini dunyoga ma'lum va mashhur qilganliklari ham bir ibratdir.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yuksak salohiyatli, ilimli insonni tarbiyalash, qonunchilikka rioya qiladigan, fuqarolik burchini ado etadigan, demokratik jamiyat talablariga amal qiladigan barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi. Ayniqsa, yosh avlodni yuksak madaniyatli va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning muhim talabi, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasidir.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish maqsadida yoshlarni Vatanga sadoqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga dahldorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan vazifalar bayon etilgan.

Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat degan tushunchalar har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan farovonlikka chorlaydigan kuch ekanligi alohida o'rin tutadi.

Tarbiya bilan bugun shug'ullanmasak, ertaga kech bo'ladi. Yoshlar ma'naviyati bilan bog'liq ayrim muammolar jahonning ko'plab mintaqalarida hamon saqlanib qolmoqda[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tabiri bilan aytganda, yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni "Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans sari!"

shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali va tizimli tashkil etish” borasida amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar saqlanib qolayotganidan dalolat bermoqda. Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash eng ustuvor vazifalarimizdan biridir[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019- yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 31 dekabrda 1059-son qarorining 1- ilovasi Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining I bobida tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi deb bayon etilgan.

Jamiyatning yuzi uning madaniyati, ijtimoiy muhiti, insonda insoniy fazilatlarida namoyon bo‘ladi. Forobiy yozganidek, jamiyatda faqat axloqiy qadriyatlar, xayr-ehson, adolat, halollik, barqarorlik, ezgulik davlat ruhini yuksaltiradi, uni faqat ma’naviy qadriyatlarga asray oladi.

Ma’naviy barkamol inson aql bilan fazilat birligiga amal qiladigan inson tushuniladi. Faqat aqlli va fazilatli kishigina eng yuksak hurmat e’tiborga loyiqdir.

Ilm inson uchun oliy va muqaddas fazilat ekanligi, do‘stlik, sadoqat, mehnatsevarlik, odillik, oriyat, mardlik, bahodirlik va boshqa fazilatlar ulug‘lanib, shu jumladan axloq ham inson fazilatlarining biri hisoblanadi.

Ma’naviy-axloqiy tushunchaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu insonning ichki dunyosi va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlaridagi to‘g‘ri, axloqiy va adolatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan tushunchadir.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlaridan biri Vatanga sadoqat hisoblanadi. Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan tushunchadir.

Vatan tushunchasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Vatan (arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, tug‘ilib o‘sgan joy, ona yurt) – kishilarning yashab turgan, ularning avlod-ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakatni anglatuvchi tushuncha hisoblanadi. Vatan tushunchasi keng va tor ma’noda qo‘llanadi. Keng ma’noda – butun bir xalq, ularning ajdodlari azaldan

istiqomat qilib kelgan makon. Tor ma'noda – kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq. Insonning uyli-joyli, boshpanali bo'lishi, uning oilasi, bola-chaqasi ham ba'zan Vatan so'zi orqali ifoda etiladi. Shuningdek, Vatan so'zi mumtoz she'riyatimizda obraz sifatida qo'llanib, ko'ngil ma'nosini ifoda etadi. Masalan, o'zbek xalq dostonlarida Chambil eli iborasi ko'p tilga olinadi. Muayyan hudud doirasida markaziy boshqaruvning paydo bo'lishi bilan Vatan so'zi xalq va davlat tushunchalarini ham anglata boshlagan. O'zbekistonimiz millati, tili va dinidan qat'iy nazar, shu zaminda yashayotgan barcha insonlarning Vatanidir[4].

Sadoqat (arabcha: Do'stlik; birdamlik; samimiylik) - insonga xos eng ezgu ma'naviy-axloqiy xislat. Sadoqat "samimiylik", "sodiqlik", "do'stlik", "vafodorlik" so'zlariga ma'nodosh hisoblanadi. Mashhur fransuz sayyohi Jak If Kusto butun umrini ummon va dengizlar hayoti va undagi sir-sinoatlar, suv ostidagi nabotot va hayvonot dunyosini kashf etishga bag'ishladi. Uning o'z ishiga bo'lgan sadoqatini butun dunyo ahli tomonidan yuksak insoniy fazilat sifatida e'tirof etildi. Navoiyning "Hayrat ul - abror" dostonida ikki vafodor yorning bir - biriga sadoqati ulug'lanadi: Har bir jamiyatning mustahkamligi va uning a'zolari orasida o'zaro ishonch hukm surishi uchun Sadoqat zarurdir. Shuning uchun ham, sadoqat jamiyat tuzilishidagi asosiy qadriyatlardan bo'lib, halqlarning taraqqiyoti, ramzi hamdir[5].

Inson aqli esa ilm va tajriba orqali boyib boradi. Darhaqiqat, ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilat ekanligi, o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri Abdulla Avloniy (1878–1934) tomonidan atroflicha asoslab berilgan. "Turkiy guliston yohud axloq" asarida insonlikni belgilovchi do'stlik, sadoqat, mehnatsevarlik, munislik va boshqa fazilatlar ham ulug'langan[6].

Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o'zini ayamaydi. Axloq talablari kishilarning fe'l-atvori va faoliyatida o'z ifodasini topadi, oila, jamoa va jamiyatdagi intizomning muhim omili axloqiy qarashdir, uning vositasida intizom tuyg'usi shakllangan kishi o'z xalqi va Vataniga sadoqat bilan xizmat qiladi, har bir ishni o'z vaqtida sidqidildan bajaradi.

O'zbekistonda nishonlanadigan bayramlarimizda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari aks etgan. Mustaqillik kuni va Konstitutsiya kuni vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuyg'ularini, Vatan himoyachilari kuni (14 yanvar) mardlik va fidoiylik fazilatlarini tarbiyalashga, o'qituvchi va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, insoniy ehtirom va qadr-qimmatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda Ro'za va Qurbon hayitlari umumilliy bayram sifatida keng nishonlab kelinmoqda. Bu bayram kishilarda iymon-e'tiqod, shukronalik fazilatlarini kamol toptiradi, kelajakka ishonch tuyg'ularini mustahkamlaydi. Navro'z

bayrami har yili yurtimizda alohida tantana bilan nishonlanib, yurtdoshlarimiz qalbiga yasharish, yaratuvchanlik, ko'tarinkilik ruhini olib kiradi. O'zbekistonimizda xalqaro bayramlar yangi yil, Xalqaro xotin-qizlar kuni va Xalqaro bolalarni himoya qilish kunining (1 iyun) nishonlanishi xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sadoqati ramzi hisoblanadi. Bugungi kunga yoshlarimizni Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda eng avvalo, kichik yoshdagi farzandlarimiz e'tiborimiz markazida bo'lishi kerak, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarblik kasb etmoqda edi. Shuningdek, bolalarning qiziqish va intilishini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim-tarbiya berish. Ularning dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish eng muhimi to'g'ri tarbiya orqali ularni ona Vatanga muhabbat ruhida kamol toptirish masalasi har doim davrning asosiy talabi bo'lib qoladi[7].

Mahallada, oilada yashovchi har bir fuqaro o'z ota-onasi, sulolasi, qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilari, do'stlari, mehnat jamoasi, mahalladoshlari bilan mehr-oqibatli, bir-birlariga saxovatli, insonparvar bo'lishi, ya'ni mahalladoshlar taqdiriga beparvo bo'lmaslik, "Qo'shning tinch-sen tinch" tamoyiliga amal qilishi, milliy an'analariga, urf-odatlariga sodiq va sadoqatli bo'lishi, ulardan g'ururlanishi, umriboqiyiligini ta'minlash uchun fidoyilik qilishi, yashayotgan hududi, mahallasi, oilasi tarixini mukammal bilishi va ularni mamlakat miqiyosida avloddan avlodga yetkazishda vijdonan yondoshishi, avlod-ajdodlarining eng noyob fazilatlari, axloq-odob qadriyatlari, kasb-hunarlarini, sulolaviy an'analarini boyitishi va el-yurt ichida namoyon etishi, turmushining har soniyasida kelajak avlodni ulug'vor maqsadlarga yetaklovchi iz qoldirish maqsadida faqat ezgu ishlarni qilishi, mahallasining, oilasining obodligi, tinchligi, xavsizligi uchun fidokorlik, tashabbuskorlik va ijodkorlikni namoyon etishi, sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit yaratish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi[8] kabi xislatlar, Vatanga sadoqat fazilatini yuksalishiga turtki bo'ladi.

Biz yoshlarimiz ongida dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish, yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlash, yoshlarda tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlagan holda ularda o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish[9], yoshlarni axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish, va kitobxonlikni targ'ib qilish ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish, tadbirkorlik

g'oyalarini qo'llab-quvvatlash borasida mahalla yoshlarining faolligini ta'minlash kabi ishlar o'z e'tiborini tortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya qilish, o'z fuqarolik burchini mohirlik va jasorat bilan bajarish, o'z ishini vijdonan o'rganish va mahoratini oshirish, davlat mol-mulkini asrash, jamiyatga nisbatan o'zaro hurmat ko'rsatish, xushmuomalalik qoidalariga rioya qilish, jamoat joylarida o'zini munosib tutish, nomunosib xatti-harakatlardan o'zini va boshqalarni tiyish, bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqiy madaniyatni oshirish, yuksak intizomni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish ishlarida ko'maklashish va boshqa talablarga rioya qilishi bilan yoshlarimizda Vatanga sadoqat fazilatini yanada yuksaltirishga erishishimiz mumkin.

Jamiyatda insonlar hayotiy qiyinchiliklarni mardonavor yengishi, fuqarolik burchini bajarishi, birodarlikni mustahkamlash hamda o'zaro yordam ko'rsatish, fuqarolarning bir-biriga nisbatan o'zaro hurmat ko'rsatish, salomlashish va xushmuomalalik va boshqa axloqiy qoidalarga rioya qilishi, jamoat joylarida o'zini munosib tutishi, nomunosib xatti-harakatlardan o'zini va boshqalarni tiyishi, jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olishi, huquqiy madaniyatni oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish ishlarida ko'maklashish kabi talablar fuqarolarning Vatanga sadoqat fazilatini yanada yuksalishiga omil bo'ladi.

Tashkilotlarning mansabdor shaxsiga ongli tarzda bo'ysunishni shakllantirish va ish reglamentiga rioya qilish, shaxsiy mas'uliyati, rahbarlarning o'z bo'ysunuvchilariga shaxsiy na'muna bo'lishi, doimiy talabchanligi, shuningdek, fuqarolarning huquqlari va sha'nini hurmat qilish, ular haqida doimiy qayg'urish, ishontirish, jamoatchilik ta'siri kabi omillarni to'g'ri uyg'unlashtirish va o'z o'rnida qo'llash, jamoada zarur moddiy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish orqali yuksak intizomga erishishi mumkin.

Xulosa o'rnida, yoshlarimizni Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda eng avvalo, maktabgacha va maktab ta'lim tashkilotlari faoliyati e'tiborimiz markazida bo'lish lozim, yoshlarni axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish, va kitobxonlikni targ'ib qilish ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish, mahalla yoshlarining faolligini ta'minlash, Vatanni sevish, davlatga daxldor shaxs ekanligidan faxrlanish va ushbu mas'uliyatni his etish tuyg'usini shakllantirish va saqlash, Vataniga doimo sodiq qolishni anglab yetish, jasorat, matonat, topqirlik, hushyorlik, o'rtoqlik va yordam ko'rsatish kabi zarur bo'lgan sifatlarni rivojlantirish, bu maqsadlarda tarbiyalilik, o'z ishiga bo'lgan munosabati shaxsiy namuna Vatanga sadoqat fazilatini tushunishimiz mumkin. Jamiyatda va jamoada sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni saqlash, o'z Vataniga sadoqatini boyitishda ma'naviy-axloqiy fazilat muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatini yuksaltirish, kundalik faoliyatda

amalga oshirilib boriladi. Avvalo, shaxs o'z Vataniga sadoqatini bajarayotganliklarini chuqur anglash hissini shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mirziyoev., “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” (O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar). “Tasvir” nashriyot uyi Toshkent – 2021. 46-b.
2. Yangi O‘zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 262 b.
3. J. Yusubov. Abu Nasr Forobiyning davlatning xayr-saxovati xaqidagi qarashlari. Jamiyat va innovatsiyalar. 4 № 2 (2023) / ISSN 2181-1415. <https://insdense.uz/index.php/socinov/index>. Murojaat sanasi 11.01.2025. 265-b.
4. O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A'zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas'ul muharrir) Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 106-b.
5. F.M. Saydjanov. Gumanitar fanlar. Darslik –“AKT va AHI” nashriyoti, Toshkent - 2023 y. 394-b.
6. O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A'zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas'ul muharrir) Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 11-b.
7. “Maktabgacha ta'limda xalqaro tajribalar va zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami (2024-yil 15-may) – T.: Science and Innovation, 2024. – 7 b.
8. “Xavfsiz mahalla – farovon oila” tizimini ijtimoiy hayotga joriy etishning samaradorligini ta'minlash mexanizmlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 110 b.
9. Ergashev I., Atavullayev M., Xudaynazarov A. Globallashuv va g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar. O'quv qo'llanma. –T.: “Universitet”, 2021. 16 b.